XALQ DEPUTATLARI BUXORO TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 30-dekabr VII-16-131-2-32-K/25 Buxoro tumani

Buxoro tumanining 2026-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash toʻgʻrisida

Oʻzbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati toʻgʻrisida”gi Qonunining 6-, 24-moddalari, Byudjet kodeksining 27-, 99-moddalari, “2026-yil uchun Oʻzbekiston Respublikasining Davlat byudjeti toʻgʻrisida”gi 2025-yil 25-dekabrdagi OʻRQ-1105-son Qonuni hamda xalq deputatlari Buxoro viloyat Kengashining 2025-yil 30-dekabrdagi VII-21-112-2-0-K/25-son qaroriga muvofiq, xalq deputatlari Buxoro tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. Oʻzbekiston Respublikasining “2026-yil uchun Oʻzbekiston Respublikasining Davlat budjeti toʻgʻrisida”gi Qonuni hamda xalq deputatlari viloyat Kengashining 2025-yil 30-dekabrdagi “Buxoro viloyatining 2026-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash toʻgʻrisida”gi VII-21-112-2-0-K/25-sonli qarori (keyingi oʻrinlarda qaror deb yuritiladi) rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur qarorga muvofiq, Buxoro tuman mahalliy budjetining 2026-yilgi daromadlari **125,9 mlrd.soʻm** hamda mutanosib ravishda xarajatlari **125,9 mlrd.soʻmga** tasdiqlanganligi, shuningdek, Buxoro tuman mahalliy budjetining shaxsiy gʻazna hisobvaragʻida turgan budjet mablagʻlarining yoʻl qoʻyiladigan eng kam miqdori **993,0 mln.soʻm** etib belgilanganligi inobatga olinsin.

3. Buxoro tuman budjeti daromadlarining 2026-yil uchun asosiy prognoz koʻrsatkichlari 1-ilovaga muvofiq hamda Buxoro tuman budjetidan 2026-yilda hududiy budjet mablagʻlarini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning

cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq, shuningdek, Buxoro tuman mahalliy budjetiga umumdavlat soliqlari va boshqa soliqsiz tushumlardan ajratmalar me'yorlari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Buxoro tuman budjeti zaxira jamg'armasi hajmi 2026-yil uchun **1,650 mlrd.so'm** miqdorida belgilansin.

Bunda, zaxira jamg'armasi mablag'larini amaldagi budjet qonunchiligiga muvofiq, budjet tizimi budjetlari shakllantirilayotganda oldindan nazarda tutib bo'lmaydigan xarajatlarni, shuningdek ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo'lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo'naltirilishi ta'minlansin.

5. Buxoro tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari S.Ochilov, Buxoro tuman iqtisodiyot va moliya bo'limi (Sh.Kudratov), Buxoro tuman soliq inspeksiyasi (B.G'aybullayev) bilan birgalikda 2026-yil mahalliy budjeti uchun belgilangan ko'rsatkichlarni o'z vaqtida va samarali bajarilishini ta'minlash choralarini ko'rsin.

6. Hududiy budjet mablag'larini taqsimlovchilar har chorak yakuni bilan budjet mablag'larining samarali va maqsadli sarflanganligi, xarajatlarning amaliy natijalari yuzasidan xalq deputatlari Buxoro tuman Kengashiga hisobot berib borsinlar.

Bunda, hududiy budjet mablag'larini taqsimlovchilar:

budjetdan ajratilgan mablag'lardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarni to'liq rejalashtirilishi va o'z vaqtida to'lanishi;

o'zlarining va tasarrufidagi tashkilotlarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallari hamda daromadlar va xarajatlar smetalarining to'g'ri tuzilishi;

budjetdan ajratilgan mablag'larning maqsadli sarflanishi va maqsadli indikatorlarning to'liq bajarilishi;

tasarrufidagi tizim tashkilotlariga budjetdan ajratiladigan mablag'larning to'g'ri taqsimlanishi;

o'z tasarrufidagi tizimda budjet intizomiga amal qilinishi ustidan nazorat qilinishini;

budjet jarayonining ochiqligini ta'minlash maqsadida rasmiy veb-saytlarda ma'lumotlarni joylashtirib borilishini ta'minlasinlar.

7. Mazkur qaror tegishli tahririyatlar va ommaviy axborot vositalarida yoritilishi tavsiya etilsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

8. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari Buxoro tuman Kengashining mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar bo‘yicha doimiy komissiyasi J.Mutaxarov hamda Buxoro tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari S.Ochilov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **OCHILOV ANVARJON ZUBAYDILLOYEVICH**

Xalq deputatlari Buxoro tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-16-131-2-32-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Buxoro tuman budjeti daromadlarining
2026-yildagi asosiy prognoz koʻrsatkichlari

ming soʻmda

T/R	Daromad turlari	Kontingent reja	Mahalliy reja
1	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda soligʻi	0,0	2 158 200,0
2	Aylanmadan olinadigan soliq	13 603 000,0	13 603 000,0
3	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad soligʻi	10 393 901,0	21 012 120,0
4	Qoʻshilgan qiymat soligʻi	0,0	1 591 400,0
5	Aksiz soligʻi, jami	0,0	8 602 600,0
	shu jumladan:		
	- alkogol mahsulotlaridan soliq	*0,0*	*0,0*
	- benzin, dizel yoqilgʻisi va gaz realizatsiyasidan soliq	*0,0*	*8 602 600,0*
6	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	1 422 000,0	5 640 000,0
7	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	17 287 000,0	17 287 000,0
8	Yuridik shaxslar yer soligʻi	2 572 000,0	16 804 000,0
9	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer soligʻi	22 152 832,0	22 152 832,0
10	Yer qaʼridan foydalanganlik uchun soliq (noruda materiallari)	0,0	9 822 000,0
11	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	792 000,0	4 881 000,0
12	Davlat boji	0,0	501 900,0
13	Jarimalar	0,0	1 163 400,0
14	Ijara toʻlovi	187 000,0	187 000,0
15	Davlat tashkilotlarining sof foydasidan daromad	0,0	0,0

16	Yig‘imlar	0,0	482 000,0
17	Xususiylashtirish	0,0	0,0
18	Boshqalar	0,0	0,0
JAMI		**68 409 733,0**	**125 888 452,0**

Xalq deputatlari Buxoro tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-16-131-2-32-K/25 -son qaroriga
2-ilova

2026-yil uchun Buxoro tuman mahalliy budjetidan hududiy budjet mablagʻlari taqsimlovchilarga ajratiladigan mablagʻlarning cheklangan miqdorlari

ming soʻm

№	Hududiy budjet mablagʻlari taqsimlovchilar nomi	Cheklangan miqdor
	Xarajatlar miqdori, jami	**125 888 452,0**
1	Maktabgacha va Maktab taʼlimi boʻlimi	43 433 658,0
	shundan:	
	"Mening maktabim"	3 213 600,0
2	Madaniyat boʻlimi	5 956 179,0
3	Yoshlar ishlari agentligining hududiy boʻlimi	4 539 990,0
4	Sport boʻlimi	6 071 792,0
5	Kambagʻallikni qisqartirish va bandlik boʻlimi	1 688 712,0
6	Qishloq xoʻjaligi soha tashkilotlari	4 114 075,0
7	Suv yetkazib berish xizmati DM	1 881 804,0
8	Iqtisodiyot va moliya boʻlimi	2 475 828,0
9	Ijtimoiy ximoya milliy agentligining hududiy boʻlimi Ijtimoiy koʻnikma markazlari xarajatlari	107 032,0
10	Hokimiyat	31 308 842,0
	shundan:	
	Fuqarolar tashabbusi jamgʻarmasi	*15 945 644,0*
	"Mahalla budjeti" jamgʻarmasi mablagʻlari	*2 278 000,0*
	Zahira jamgʻarmasi	*1 650 330,0*
11	Hokimiyat (Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi)	980 531,0
	shundan:	
	Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari	*67 423,0*
	Axborot-kutubxona markazlari	*913 108,0*
12	Obodonlashtirish boshqarmasi	23 330 009,0
13	Boshqa tashkilotlar	0,0

Xalq deputatlari Buxoro tumani Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-16-131-2-32-K/25 -son qaroriga
3-ilova

2026 yilda Buxoro tuman mahalliy budjetiga umumdavlat soliqlari va boshqa majburiy to‘lovlar hamda soliq bo‘lmagan to‘lovlar bo‘yicha belgilanadigan ajratma me’yorlari

foiz hisobida

№	Mahalliy budjet nomi	Qo‘shilgan qiymat solig‘i				Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i				Jismoniy shaxslar mol-mulkini ijaraga berishdan				Foyda solig‘i				Alkogol mahsulotlari (pivodan tashqari)				Pivo				Benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i				Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq			
		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga	
		Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar
1	Buxoro tumani	0%	4%	20%	16%	0%	21%	100%	79%	100%	100%	0%	0%	0%	18%	100%	82%	0%	0%	30%	30%	0%	0%	30%	30%	0%	20%	100%	80%	0%	100%	100%	0%

№	Mahalliy budjet nomi	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i				Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq				Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq				Davlat ulushi bo‘yicha dividendlar				Aylanmadan soliq	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun qat’iy miqdorda belgilangan soliq	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	Davlat boji		Jarimalar		Yig‘imlar	
		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga												
		Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Tuman (shahar)lar budjetiga	Tuman (shahar)lar budjetiga	Tuman (shahar)lar budjetiga	Tuman (shahar)lar budjetiga	Tuman (shahar)lar budjetiga	Tuman (shahar)lar budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga	Tuman (shahar)lar budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga	Tuman (shahar)lar budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga
1	Buxoro tumani	0%	100%	100%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	0%	100%	100%	0%	100%	100%	100%	100%	100%	10%	90%	10%	90%	10%	90%